

SURXONDARYO VILOYATIDA TUPROQ QOPLAMINI MUHOFAZA QILISH.

Abdunazarov Xusan Mengliyevich Termiz davlat universiteti,
Geografiya kafedrası dotsenti, geografiya fanlari nomzodi Termiz,
O‘zbekiston,

Xolboyeva Marjona, Alimova Jasmina Termiz davlat universiteti
Geografiya ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabalari Termiz, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining sug’orma dehqonchilik rayonlarida tuproqning suv va shamol ta’sirida eroziyaga uchrashi, tuproq sho‘rlanishini vujudga keltiruvchi omillar va unga qarshi kurash yo‘llari yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sug’orma dehqonchilik, suv va shamol eroziyasi, tuproq sho‘rlanishi, tuproq unumdorligi, agroekologik muammolar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются факторы, вызывающие эрозию почвы под воздействием воды и ветра, засоление почвы и способы борьбы с ними на орошаемых сельскохозяйственных угодьях Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: Орошаемое земледелие, эрозия под воздействием воды и ветра, засоление почвы, плодородие почвы, агроэкологические проблемы.

SOIL COVER PROTECTION IN SURKHANDARYA REGION

Abdunazarov Khusan Mengliyevich — Associate Professor, Department of Geography, Termez State University, Candidate of Geographical Sciences,
Termez, Uzbekistan

Kholboyeva Marjona, Alimova Jasmina — 2nd-year students, Geography Education program, Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation: This article discusses the factors that cause soil erosion under the influence of water and wind, soil salinization, and ways to combat it in the irrigated farming areas of Surkhandarya region.

Key words: Irrigated agriculture, water and wind erosion, soil salinity, soil fertility, agroecological problems.

Tuproq eroziyasi –tuproqning eng unumdor yuqori qatlamlari va tuproq osti jinslarining atmosfera yog'inlari, sug'orish suvlari, shamol va boshqalar omillar ta'sirida yemirilish jarayonidir. Tuproqlarini muhofaza qilish, ulardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Tuproq eroziyasi asosan relyefi notekis – past-baland, eroziya bazisi (ma'lum bir joyning metr hisobida dengiz sathidan balandligi bilan suv kelib quyiladigan joyning dengiz sathidan balandligi o'rtasidagi farq) katta bo'lgan yerlarda boshlanadi.

Tuproq eroziyasi hosil bo'lish omillariga ko'ra suv, shamol, o'pirish, yemirish, yaylov, mexanik tuproq eroziya turlariga bo'linadi. Suv eroziyasining boshlanishi va kuchayishi relyefning tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, odatda, yer yuzasining nishabligi 1-1,5⁰ oshganda eroziya yuz bera boshlaydi.

Suv eroziyasi yemirilish jarayonida tuproq zarrachalarining bo'laklarga bo'linish va qayta joylashish usuliga ko'ra, yuvilish, jilg'a va jarlanish eroziyasiga bo'linadi.

Yuvilish eroziyasi tuproqqa singib ulgurmagan suvning oqimi ta'sirida vujudga kelib, tuproq qatlamini nisbatan bir tekisda yuvib ketishi bilan tavsiflanadi.

Jilg'a eroziyasi jilg'a suvining oqimi ta'sirida uncha chuqur bo'lmagan o'ydim-chuqurliklar hosil bo'lishi bilan yuz beradi va buni odatdagi yerga ishlov berish bilan bartaraf etish mumkin.

Jarlanish eroziyasi suv eroziyasining bir turi bo'lib, suv oqimining tor o'zanda to'planib oqishi, tuproqning vertikal yemirilishi va yuvilishi natijasida vujudga keladi. Suv ta'sirida yerning yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi, vaqt o'tishi bilan ular kengayib jarliklarni hosil qiladi.

Surxondaryo viloyatida tuproqning ustki unumdor qatlamining uchirib ketilishida shamolning roli katta. Shamol eroziyasiga, hududning relyefdan qat'iy nazar, asosan bir yo'nalishda esadigan kuchli shamol, tuproqning yengil mexanik tarkibi va sho'rlanganligi, sug'oriladigan yer maydonlarining tabiiy sharoitiga nomuvofiq yoki ixota daraxtzorlarining yo'qligi sabab bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida sug'orma dehqonchilik qiladigan hududlarda suv eroziyasi namlik bilan yetarli ta'minlangan, yog'in miqdori 350-400 mm dan yuqori va yarim ta'minlangan yog'in miqdori 200-300 mm ni tashkil qiladigan lalmikor yerlarda hamda tipik to'q tusli sur tuproqlarda, qisman tog' oldi va tog' etagi qiyaliklarida uchraydi.

1-jadval

Surxondaryo viloyati sug'oriladigan ekin maydonlarida tuproqning sho'rlanish darajasi, gektar hisobida (2022yil 1-oktyabr holati)

Tumanlar nomi	Umumiy sug'oriladigan maydon	Sho'rlangan maydonlar	Shundan, tuproqning sho'rlanish darajasi		
			Kuchsiz sho'rlangan	O'rtacha sho'rlangan	Kuchli sho'rlangan
Angor	19520	6569	6009	529	32
Bandixon	17267	8169	5891	2207	70
Boysun	4508	-	-	-	-
Denov	30500	-	-	-	-
Jarqo'rg'on	27626	1511	1457	54	-
Qiziriq	29586	23631	14181	9250	200
Qumqo'rg'on	28444	406	281	125	-
Muzrabot	38802	24186	12671	11342	173
Oltinsoy	19710	-	-	-	-
Sariosiyo	14352	-	-	-	-
Termiz	17883	7665	6988	615	62
Uzun	14687	-	-	-	-
Sherabod	41060	20642	15633	4379	630
Sho'rchi	20895	-	-	-	-
Viloyat bo'yicha jami:	324860	92780	63111	28501	1167


Jadval Surxondaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Surxondaryo viloyatining sug'orib dehqonchilik qilinadigan hududlari tuproq hosildorligining pasayishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri tuproqning sho'rlanishi hisoblanadi. Viloyatda yer va suv resurslaridan nooqilona foydalanishi sababli qishloq xo'jaligi bilan bog'liq agroekologik (yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi hisobiga tuproqning sho'rlanishi) muammolar vujudga keldi. Vujudga kelgan bunday agroekologik muammolarni viloyatning tekislik hududlarida joylashgan tumanlarida kuzatishimiz mumkin.

Surxondaryo viloyatida sho'rlangan tuproqlar 92780 gektarni tashkil etib, jami sug'oriladigan maydonlarning 28,5 foizini tashkil etadi.

Jami shoʻrlangan tuproqlarning 68 foizi kuchsiz shoʻrlangan tuproqlar, 30,7 foizi oʻrtacha shoʻrlangan, 1,3 foizi kuchli shoʻrlangan tuproqlar toifasiga kiradi.

Viloyatning tekislik tumanlari boʻlgan Muzrabot, Qiziriq, Sherobod, Bandixon tumanlarida tuproqning shoʻrlanish darajasi ancha yuqori boʻlib dehqonchilik ekinlaridan olinadigan hosildorlik ancha kamayib ketgan. Mazkur tumanlarda yopiq kollektor-drenajlarni tozalash, zovurlarni qazish kabi kompleks meliorativ tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.



1-rasm Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida tuproq shoʻrlanish darajasi (%da)

Tumanlar darajasida tuproqning shoʻrlanish darajasi tahlili shundan dalolat beradiki, viloyatning Qiziriq tumanida jami sugʻoriladigan maydonlarning 79,8 foizi shoʻrlangan yerlarni tashkil etadi. Tumandagi jami shoʻrlangan tuproqlarning 60 foizi kuchsiz shoʻrlangan, 39 foizi oʻrtacha shoʻrlangan, 1 foizi kuchli shoʻrlangan tuproqlarni tashkil etadi. Bunday agroekologik muammolarni viloyatning Muzrabot va Sherobod tumanlarida ham kuzatishimiz mumkin. Muzrabot tumanida jami sugʻoriladigan yerlarning 62,3 foizi shoʻrlangan tuproqlarni tashkil etadi. Shundan shoʻrlangan tuproqlarning 52,3 foizi kuchsiz shoʻrlangan, 46,8 foizi oʻrtacha shoʻrlangan, 0,9 foizi kuchli shoʻrlangan tuproqlardir. Bu koʻrsatkich Sherobod tumanida shunga mos holda 50,2; 75,7; 21,2; 3,0 foizlarni tashkil etgan (1-jadval), (1-rasm).

Viloyat tuproq qoplami eroziyasiga sabab bo'luvchi yana bir omil inson hisoblanadi. Inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tuproq eroziyasining turlari ko'p, jumladan sanoatda foydali qazilmalarni qazib olish, (ayniqsa ochiq usulda qazib olish), uy-joy, ishlab chiqarish binolari va yo'l qurilishi, gaz va neft quvurlarini o'tkazish va boshqalar.

Sanoat chiqindilari hamda maishiy chiqindilar ham ma'lum darajada tuproqning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holatdan qutulish uchun chiqindilarni qayta ishlashni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi besh yilda respublikamizda paxta ekiladigan maydonlarning qisqartirilishi, kam hosil beradigan paxta va g'alla ekinlarning o'rniga poliz va sabzavot ekinlari maydonining kengaytirilishi, sohaga ilg'or innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi, kompleks agrotexnikaviy va meliorativ tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Зокиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана. -Т.: "Меҳнат", 1975.
- 2.Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т.: "Ўқитувчи", 1996.
- 3.Ғуломов П.Н. Ўзбекистонда табиатдан фойдаланишнинг географик асослари. Тошкент. 1990.
- 4.Ҳасанов И., Ғуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 2007.
- 5.Ҳасанов И., Ғуломов П.Н., Қаямов А. Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Университет, 2010.